
Farg'ona tumanida aholini biznesga jalb qilish bo'yicha tuman hokimining birinchi o'rinbosari O.Abduraximovning MUROJAATI

Assalomu alaykum, tumandoshlar!

Davlatimiz rahbari boshchiligida 2024-yil 12-avgust kungi Buxoro viloyati misolida o'tkazilgan selektor yig'ilish yakunlarida qilingan ma'ruzalari va berilgan topshiriqlari asosida Farg'ona tumanida tomorqadan samarali foydalanish, mahallarda sanoat binolarini tashkil etish hamda sanoat, savdo, xizmat va zamonaviy agrotexnologiyalar sohasida "drayver" loyiha ishga tushirish orqali aholi bandligini ta'minlash va daromadini oshirish borasida "**Sayhunobod, Uychi, Zarbdor va Gijduvon tumanlari**" tajribasi asosida ishlar tashkil etilmoqda. Jumladan:

Sayxunobod tajribasi asosida har bir MFYga tijorat banklari hamda iqtisodiy kompleks hodimlaridan bittadan mas'ullar birlashtirilib, xonadonlarni to'liq xatlovdan o'tkazildi. O'tkazilgan xatlov natijasida **6831 ta** xonadonlarga loyihalar paketini amalga oshirish rejalashtirilgan. Shundan: **1460 ta** mahallalarda mikroloyihalarni amalga oshirish va **5371 ta** dehqon xo'jaliklari tashkil etiladi. Yanvar-iyul oylarida **715 ta** mikroloyihalarga **44,0 mlrd.so'mlik** kredit mablag'lari o'zlashtirildi xamda **1115 ta** dehqon xo'jaliklari tashkil etildi va **2415 nafardan** ortiq aholi doimiy daromaga ega bo'ldi. Avgust-dekabr oylarida **745 ta** mikroloyihalar, **4256 ta** dehqon xo'jaliklari tashkil etiladi. Hususan **sentabr** oyida **268 ta** mikroloyihalarga **7,8 mlrd. so'mlik** kredit mablag'lari o'zlashtirildi.

(Ma'lumot uchun: Agro bank 12 ta, Xalq bankiga 8 ta, Turon bankiga 42 ta, Milliy bankiga 11 ta MFYlar birlashtirildi.)

Uychi tumani tajribasi asosida tijorat bank mijozlari bilan tumandagi **73 ta** mahallarda **16 ta** uchrashuvlar o'tkazish va ushbu orqali **3482 ta** ish o'rinlari yaratish rejalashtirilgan bo'lib, may-iyul oylarida **12 marotaba** uchrashuvlar o'tkazilib **217 ta** ish o'rinlari yaratildi. Avgust-dekabr oylarida tijorat bank raxabarlari mijozlari bilan uchrashuvlar o'tkazish orqali **2339 ta** ish o'rinlari yaratiladi. Jumladan **avgust-sentabr** oylarida **4 ta** uchrashuv o'tkazish orqali **1925 ta** ish o'rinlari yaratildi.

Zarbdor tumani tajribasi asosida tumanda mavjud imkoniyat va zahiralarni aniqlash va ulardan foydalanish orqali **61,3 mlrd. So'mlik 12 ta** loyihalarni amalga oshirish hisobiga jami **1015 nafar** ish o'rinlari yaratilishi rejalashtirilgan. Hozirgi kunga qadar **43,5 mlrd. so'mlik 4 ta** loyixalar ishga tushirilib **800 ta** yangi ish o'rinlari yaratildi.

G'ijduvon tajribasi asosida tumanda tadbirkorlar bilan "Mahallabay" ishlab chiqarishga ixtisoslashgan **10 ta** mahallalarda **15 tadan** "Tepaga o'sadigan" **150 ta** sanoat loyihalarini amalga oshirish belgilangan bo'lib, ushbu loyihalarni amalga oshirish orqali **1314 nafar** ishsiz fuqarolarni ish bilan bandligini ta'minlash va doimiy daromadga ega bo'lishi ta'minlanishi rejalashtirilgan bo'lib, amalda shu kunga qadar **14 ta** sanoat loyihalarini amalga oshirish hisobiga **286 ta** yangi ish o'rinlari tashkil etildi.

Bundan tashqari tumanimiz ish o'rinlarini tashkil qilishda quyidagi moliyaviy instrumentlardan foydalanildi. Hususan tumanimizda faoliyat ko'rsatayotgan tijorat banklari tomonidan barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan **485,6 mlrd. so'mlik** kreditlar ajratildi.

Shundan, **520 ta** kichik va o'rta biznes sub'yektlariga **243,7 mlrd. so'mlik**, **255 ta** yakka tartibdagi tadbirkorlarga **31,1 mlrd. so'mlik** hamda **7986 nafar** fuqarolarga **210,8 mlrd so'mlik** kreditlar ajratildi. Shundan "**Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish**" dasturi doirasida **724 nafar** aholiga **15 mlrd. 842 mln.** so'mlik imtiyozli kreditlar ajratildi va **1100 nafardan** ortiq ishsiz oila a'zolarining bandligi ta'minlandi.

2024-09-23 17:59:22